



UDK: 340.131.5:342.7

Muqaddas POZILOVA,
NamDPI Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: muqaddaspozilova@gmail.com

NamDPI o'qituvchisi, PhD N.Aliyev taqrizi asosida

ДЕМОКРАТИК ИСЛОХОТЛАР ЖАРAYONIDA SHAXSNING HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALAR

Аннотация

Ushbu maqolada demokratik islohotlar jarayonida shaxsning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish masalalari keng ko'lamda tahlil qilinadi. Bugungi globalashuv sharoitida jamiyatning barcha sohalarida sodir bo'layotgan o'zgarishlar fuqarolardan nafaqat huquqiy bilimga ega bo'lishni, balki o'z huquq va majburiyatlarini ongli ravishda anglab, ulardan amaliyotda foydalanish malakasini ham talab etmoqda. Demokratik davlat qurish jarayoni shaxsning huquqiy ongiga tayanadi, chunki huquqiy ong yuksak bo'lmagan jamiyatda qonunlarning amalga qo'llanishi, islohotlarning samaradorligi va fuqarolarning ijtimoiy faolligi past bo'ladi. Shu sababli huquqiy madaniyatni rivojlantirish demokratlashuvning asosiy unsurlaridan biri sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyati, huquqiy savodxonlik, ta'lim tizimi, huquqiy tarbiya, ommaviy axborot vositalari, huquqiy ma'rifati, sud-huquq tizimi, qonun ustuvorligi.

ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ ЛИЧНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ РЕФОРМ

Аннотация

В данной статье широко анализируются вопросы формирования правового сознания и правовой культуры личности в процессе демократических реформ. В условиях современной глобализации изменения, происходящие во всех сферах общества, требуют от граждан не только обладания правовыми знаниями, но и сознательного осознания своих прав и обязанностей, умения использовать их на практике. Процесс построения демократического государства опирается на правовое сознание личности, поскольку в обществе, где правовое сознание невысоко, практическое применение законов, эффективность реформ и социальная активность граждан низки. Поэтому развитие правовой культуры рассматривается как один из основных элементов демократизации.

Ключевые слова: Правовое сознание, правовая культура, демократические реформы, гражданское общество, правовая грамотность, система образования, правовое воспитание, средства массовой информации, правовое просвещение, судебно-правовая система, верховенство закона.

ISSUES OF SHAPING AN INDIVIDUAL'S LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE IN THE PROCESS OF DEMOCRATIC REFORMS

Annotation

This article extensively analyzes the issues of forming legal consciousness and legal culture of the individual in the process of democratic reforms. In the context of today's globalization, the changes taking place in all spheres of society require citizens not only to have legal knowledge, but also to consciously understand their rights and obligations and be able to use them in practice. The process of building a democratic state relies on the legal consciousness of the individual, since in a society where legal consciousness is not high, the practical application of laws, the effectiveness of reforms, and the social activity of citizens are low. Therefore, the development of legal culture is considered one of the main elements of democratization.

Key words: Legal consciousness, legal culture, democratic reforms, civil society, legal literacy, education system, legal education, mass media, legal education, judicial-legal system, rule of law.

Kirish. Demokratik islohotlar olib borilayotgan jamiyatlarda shaxsning huquqiy ongini oshirish va huquqiy madaniyatini shakllantirish masalasi juda muhimdir. Chunki demokratiya faqat qonunlar qabul qilinishi bilan emas, balki ushbu qonunlarning amaliyotda to'g'ri ishlashi, fuqarolarning ularni tushunishi va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishi bilan mustahkamlanadi. Shaxsning huquqiy ongi qanchalik yuksak bo'lsa, jamiyatda qonun ustuvorligi, adolat va ijtimoiy barqarorlik ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bugungi globalashuv davrida huquqiy madaniyat masalasi nafaqat davlat, balki har bir fuqaroning kundalik hayotiga ta'sir qiladigan jarayonga aylangan [1]. Raqamli texnologiyalar keng rivojlanib borayotgan bir paytda axborot oqimlari kuchayib, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni saralash qiyinlashmoqda. Shu sababli insonning huquqiy ongli bo'lishi,

to'g'ri axborotni noto'g'risidan ajrata bilishi, o'z huquq va majburiyatlarini aniq bilishi har qachongidan ham muhim bo'lib qoldi. Demokratik islohotlar esa aynan shuni talab qiladi – jamiyatda ongli, faol, huquqiy jihatdan yetuk fuqaro shakllantirishni.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Huquqiy ong – bu insonning huquq va majburiyatlar haqidagi tasavvurlari, huquqiy normalarga munosabati, ularning mohiyatini anglab yetish darajasidir [2]. Huquqiy ong shaxsning ijtimoiy xulq-atvori, jamiyatdagi o'rnini aniqlashida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Masalan, shaxs huquqlarini bilmagan odam o'z manfaatlarini himoya qila olmaydi, huquqiy jarayonlarda faol ishtirok eta olmaydi, ba'zida esa huquqbuzarlik sodir etib qo'ygani holda qanday oqibatlariga duch kelishini bilmaydi.

Shuning uchun demokratik davlatlar, eng avvalo, huquqiy ongini yuksaltirishga katta e'tibor qaratadi.

Huquqiy madaniyat esa huquqiy ongdan ham keng tushuncha bo'lib, u faqat bilim emas, balki insonning huquqiy qadriyatlarini, huquqiy xulqi, qonunlarga hurmati, boshqalarning huquqlariga munosabati kabi omillarni o'z ichiga oladi. Yuqori huquqiy madaniyatga ega inson jamiyatda hech kimga ziyon yetkazmaydi, jamiyat manfaatlarini hisobga oladi, nizolarni qonuniy yo'l bilan hal qilishga intiladi. Aksincha, past huquqiy madaniyat esa jamiyatda tartibsizlik, qonunlarning qadrsizlanishi, huquqiy nihilizm kabi salbiy holatlarga olib keladi.

Demokratik islohotlar jarayonida shaxsning huquqiy ongini shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri ta'lim tizimidir. Maktabdan boshlab bolalarga ularning huquqlari, majburiyatlarini, jamiyat oldidagi javobgarligi haqida tushunarli tarzda bilim berilishi lozim. Agar yosh bola huquqiy me'yorlarni erta yoshdan bilib o'sgan bo'lsa, kelajakda uning jamiyatdagi xatti-harakati to'g'ri bo'ladi. Oliy ta'lim tizimida esa huquqiy fanlarni amaliyot bilan bog'lash, interaktiv metodlardan foydalanish, sud jarayonlari bilan tanishtirish kabi usullar huquqiy madaniyatni yanada mustahkamlaydi. Oila ham huquqiy ijtimoiylashuvning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Bolaning huquqqa munosabati ko'pincha otanonaning xatti-harakati, oiladagi muhit, tarbiya usuli orqali shakllanadi. Agar ota-ona o'zi qonunga hurmat bilan qarasa, u farzandiga ham shunday tarbiya beradi. Ba'zi oilalarda esa bolaga huquqiy tarbiya berish uchalik ahamiyatli deb hisoblanmaydi. Bu esa kelajakda shaxsning huquqiy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli oilaviy huquqiy tarbiya madaniyatini rivojlantirish – jamiyatning umumiy huquqiy savodxonligi uchun muhim omildir [3].

Bugungi kunda internet, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar faoliyati shaxsning huquqiy ongiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. To'g'ri ma'lumot yetkazilsa, odamlarning huquqiy savodxonligi oshadi, ammo noto'g'ri, biryozlama yoki manipulyatsion axborotlar esa aks ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy huquqiy kontentni ko'paytirish, davlat organlarining ochiq axborot berishini kuchaytirish zarur. Axborotlarning soddalashtirilgan, izohli ko'rinishda taqdim etilishi fuqarolarga o'z huquqlarini tushunishda katta yordam beradi.

Fuqarolik jamiyati institutlari – nodavlat tashkilotlar, yoshlar uyushmalari, inson huquqlari bo'yicha markazlar ham huquqiy madaniyatni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular aholiga bepul huquqiy maslahatlar berishi, trening va seminarlar tashkil etishi, jamoatchilik nazorati kabi mexanizmlar orqali fuqarolarning huquqiy faolligini kuchaytirishi mumkin. Demokratik jamiyatda aynan shunday institutlar fuqarolarni davlat va jamiyat o'rtasidagi muhim ko'priksifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Huquqiy madaniyatni shakllantirishda yana bir muhim masala – davlat boshqaruvining shaffofligi va sud tizimining mustaqilligi. Agar fuqarolar davlat idoralariga ishonsa, adolat mezonlari buzilmayotganini ko'rsa, ularning huquqiy ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, adolatsizlik yoki korrupsiya holatlari huquqqa bo'lgan ishonchni zaiflashtiradi. Shu sababli demokratik islohotlar samaradorligi, birinchi navbatda, sud tizimidagi adolat va shaffoflik bilan bevosita bog'liqdir.

Shaxs huquqiy ongini shakllantirish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Ulardan eng asosiylaridan biri – huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi. Ba'zi odamlar o'z huquqlarini ham, majburiyatlarini ham yaxshi bilmaydi, qonuniy jarayonlarni tushunmaydi. Bu esa ko'plab muammolarga olib keladi: huquqbuzarliklar, iqtisodiy nizolar, jamiyatdagi ishonchsizlik va boshqalar. Yana bir muammo –

huquqiy hujjatlarining murakkab tilda yozilishi. Oddiy fuqaro qonunning matnini o'qib tushunolmaydi, natijada u o'ziga kerakli ma'lumotni olmaydi. Shuningdek, OAV va internetdagi noto'g'ri yoki tekshirilmagan ma'lumotlar ham shaxsning huquqiy ongiga salbiy ta'sir qiladi [4]. Ayrim shaxslar yoki blogerlar tomonidan qonunlar biryozlama talqin qilinishi, jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish orqali odamlarni chalg'itishi mumkin. Bu esa jamiyatda huquqiy madaniyatning pasayishiga olib keladi. Shu sababli rasmiy axborot manbalarini kuchaytirish, fuqarolarga ishonchli ma'lumot yetkazish zarur.

Demokratik islohotlar jarayonida shaxsning huquqiy ongini oshirish bo'yicha bir qator takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, ta'lim tizimini zamon talablariga mos ravishda modernizatsiya qilish, huquqiy ta'lim mazmunini yanada amaliyotga yo'naltirish kerak. Ikkinchidan, keng ommaga mo'ljallangan huquqiy ma'rifat kampaniyalarini kuchaytirish, ijtimoiy tarmoqlarda izohli, sodd huquqiy videoroliklar, grafikalar, bukletlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash, ular bilan davlat o'rtasida samarali hamkorlik tizimini yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, sud tizimining shaffofligi va adolatli ishlashini ta'minlash shaxsning huquqiy ongini mustahkamlashda juda katta ahamiyatga ega. Adolatni his qilgan fuqaro qonunga hurmat bilan qaraydi. Shu bois sud jarayonlarining ochiqlikini oshirish, fuqarolarga qulay bo'lgan elektron sud tizimlarini joriy qilish yaxshi natija beradi. Oilada esa ota-onalarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha o'quv dasturlari tashkil etish, farzandlar bilan huquqiy mavzularda suhbatlar o'tkazish foydali bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Tahlil shuni ham ko'rsatdiki, internet va ijtimoiy tarmoqlarning kuchayishi natijasida fuqarolarning huquqiy ongiga ta'sir kuchaygan. Lekin axborotlar oqimining tartibsizligi, ayrim blogerlar yoki manbalarni yetarli malakaga ega bo'lmagan holda huquqiy masalalarni yoritishi, jamiyatda noto'g'ri huquqiy tasavvurlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat shaxsning huquqiy ongini shakllantirish jarayonida raqamli savodxonlik va media madaniyatini kuchaytirish zarur ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, tahlillar fuqarolarning davlat idoralariga bo'lgan ishonch darajasi ularning huquqiy ongiga bevosita bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Adolatli sudlov, ochiq davlat boshqaruvi va korrupsiyaga qarshi samarali kurash – huquqiy madaniyatni shakllantirishning eng muhim omillaridan biridir. Agarda fuqarolar adolatni his qilsa, qonunga bo'lgan hurmat o'z-o'zidan mustahkamlanadi. Aks holda esa, huquqiy nihilizm – ya'ni qonunga ishonchsizlik kuchayishi mumkin [5].

Oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan so'rovlar tahlili, talabalar o'rtasida huquqiy bilim darajasi o'rtacha bo'lsa-da, amaliy jarayonlarda ushbu bilimlardan foydalanish ko'nikmalari yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Bu esa huquqiy ta'limni nazariy bilimlar bilan cheklab qo'ymasdan, amaliy holatlar, simulyatsiyalar, sud jarayonlarini kuzatish kabi usullar bilan boyitish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi natijalar va xulosalarga kelindi:

Birinchidan, demokratik islohotlar samaradorligi shaxsning huquqiy ongiga bevosita bog'liq bo'lib, har qanday qonun yoki islohotning amaliy natijasi fuqarolarning uni qanchalik tushunishi va unga amal qilishiga qarab belgilanadi. Shuning uchun huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi shart.

Ikkinchidan, ta'lim tizimi huquqiy madaniyatni shakllantirishning asosiy poydevori sifatida har tomonlama takomillashtirilishi zarur. Maktab, kollej va universitetlarda huquqiy tarbiya tizimi zamonaviy pedagogik yondashuvlar

asosida olib borilishi, huquqiy fanlar amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Huquqiy ta'limning samaradorligi uning naqadar hayotiy ekaniga bog'liq.

Uchinchidan, oilaning huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi o'rni beqiyosdir. Ota-onalarning huquqiy savodxonligi yuqori bo'lsa, farzandlar ham huquqqa hurmat bilan qaraydi. Oila avvalo shaxsning asosiy ijtimoiy maktabi ekanini inobatga olib, oilalarda huquqiy tarbiyaga doir dasturlar ishlab chiqish zarur.

To'rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari shaxsning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim kuch bo'lib, ular davlatning asosiy hamkori sifatida huquqiy targ'ibot, treninglar, seminarlar, jamoatchilik nazorati kabi loyihalarni kengaytirishi kerak. Fuqarolik jamiyatining faol bo'lishi aholining huquqiy faolligini oshiradi.

Beshinchidan, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy savodxonlikni oshiruvchi kontentni ko'paytirish zarur. Axborotlarning sifatli, aniq, sodda tilda berilishi fuqarolarning huquqiy ongiga katta yordam beradi. Shuningdek, raqamli savodxonlikning oshirilishi jamiyatda noto'g'ri ma'lumotlarga qarshi kurashishni osonlashtiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, demokratik islohotlar davrida shaxsning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish – bu uzoq muddatli, tizimli va izchil jarayondir. Bu jarayonda ta'lim, oila, davlat organlari, OAV, fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Har bir fuqaro o'z huquq va majburiyatlarini bilsa, qonunlarga hurmat bilan yondashsa, jamiyatda adolat va barqarorlik qaror topadi. Shu bois huquqiy madaniyatni rivojlantirish demokratik davlat qurishning eng asosiy sharti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Boyqobilov Z. Huquqiy ongi va huquqiy madaniyati hodisalarini tahlil etishning ilmiy-pedagogik asoslari // The Conference Hub, 2025. – P. 50-54.
2. Yangiboyev F.R. Huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy tarbiyaning o'rni // Modern education and development, 2025. – №. 2. – P. 34-37.
3. Rasulov H. Huquqiy madaniyatni yuksaltirish–ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning muhim omil sifatida // Bulletin of scientific research TUES, 2023. – №. 2. – P. 212-218.
4. Mamaziyaev X. Jamiyatda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish: muammo va yechimlar // Наука и инновация, 2025. – №. 11. – С. 39-43.
5. Ko'chkinova A. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yoshlar ma'naviyatida tutgan o'rni // Образование наука и инновационные идеи в мире, 2025. – №. 8. – С. 278-283.